TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SADRIDDINOVA NIGORA JUNAYDULLA QIZI

PURKASHLI TEXNOLOGIYA UCHUN SUV ASOSLI BO‘YOQ TARKIBINI MODIFIKATSIYALASH ORQALI CHOP ETISH SIFATINI OSHIRISH

05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari

Texnika fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 667.526.001.73:655.3:004

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical science

Sadriddinova Nigora Junaydulla qizi
Purkashli texnologiya uchun suv asosli bo‘yoq tarkibini modifikatsiyalash orqali chop etish sifatini oshirish **3**

Садриддинова Нигора Жунайдулла кизи
Повышение качества печати модификацией состава водорастворимой краски для струйной технологии ……..……..... **25**

Sadriddinova Nigora Junaydulla qizi
Improving print quality by modifying the composition of water-based ink for inkjet technology ……..... **47**

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …….. **51**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

SADRIDDINOVA NIGORA JUNAYDULLA QIZI

PURKASHLI TEXNOLOGIYA UCHUN SUV ASOSLI BO‘YOQ TARKIBINI MODIFIKATSIYALASH ORQALI CHOP ETISH SIFATINI OSHIRISH

05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari”

texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/T6919 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Babaxanova Xalima Abishevna** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Shin Illarion Georgiyevich** texnika fanlari doktori, professor
	Mark Aronovich Zilbergleyt kimyo fanlari doktori, professor (Belarus Respublikasi)
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 26-noyabr soat 11^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shoxjahon ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08; faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ma’muriy binosi, 2-qavat, 222-xona.

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ 324-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent sh, Shoxjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 10-noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 10-noyabrdagi № 318-raqamli reestr bayonnomasi).

X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda matbaa sanoatining rivojlanishi kam adadli, ko‘p rangli bosma mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘sishi bilan tavsiflanadi. Bu esa raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va bosma mahsulotlarni shaxsiylashtirilishi bilan izohlanadi. Bosma qolipini tayyorlash xarajatlarining mavjud emasligi, yuqori darajada avtomatlashtirilganligi, natijalarning takrorlanuvchanligi va ekologik yuklamaning pasayishi tufayli purkashli chop etish eng istiqbolli raqamli texnologiyalardan biri hisoblanadi. Chop etish boshchalari, bo‘yoq ta’minoti tizimlarining takomillashuvi va chop etiladigan materiallar turlarining kengayishi mazkur texnologiyaning ishlab chiqarish, qadoqlash va to‘qimachilik sanoatida keng qo‘llanilishiga xizmat qilmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, jahon purkashli chop etish bozori har yili o‘rtacha 5-9 foizga o‘smoqda. Bu esa ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi, chop etish tizimlarining tezligi va aniqligining oshirilishi, shuningdek, suv asosli, lateksli hamda ultrabinafsha (UB) nurlar ta’sirida qotuvchi bo‘yoqlarning takomillashtirilishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, chop etiladigan materiallar turlarining xilma-xilligi bosma jarayonining texnologik parametrlarini moslashtirishni talab qiladi, import qilinadigan sarflanuvchi materiallarga qaramlik esa muqobil xomashyo asosida yangi bo‘yoq kompozitsiyalarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahonda purkashli chop etish uchun tomchi hosil bo‘lishining barqarorligini ta’minlaydigan, turli materiallar bilan yuqori darajada mos keladigan, bosma mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qiladigan, yaxshilangan funksional hamda reologik xususiyatlarga ega bo‘lgan, ekologik xavfsiz suv asosli bo‘yoqlarni yaratishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda, ayniqsa, chop etish tizimlarining konstruktiv xususiyatlari, shuningdek, chop etiladigan materialning fizik-kimyoviy va sirt xususiyatlarini hisobga olgan holda komponentlar tarkibini o‘zgartirish orqali belgilangan xossalarga ega bo‘lgan suv asosli bo‘yoqlarni olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda purkashli bosma va suv asosli bo‘yoqlardan foydalangan holda ko‘p rangli kam adadli bosma mahsulotlarni ishlab chiqarish sifatini oshirish, raqobatbardosh hamda eksportga yo‘naltirilgan matbaa mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bo‘yicha majmuaviy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashga qaratilgan sanoat siyosatini izchil davom ettirish, yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirish hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga ko‘paytirish” muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan[1]. Ushbu vazifalar ijrosi doirasida muhim natijalarga erishilgan bo‘lib, ichki bozorni mahalliy xomashyo bilan ta’minlash va matbaa mahsulotlari tannarxini pasaytirish maqsadida import qilinadigan xomashyolar (qog‘oz, karton, bo‘yoq va yelimlovchi moddalar) ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining ishlab chiqilishi ulardan biri hisoblanadi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 “2022/2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risidagi”gi, 2020-yil 16-martdagi PQ-4640-son “Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahonda purkashli chop etish va bosma bo‘yoqlarining turlari, bo‘yoqning chop etiladigan materialning yuzasi bilan o‘zaro ta’sirlashuvi mexanizmi va kinetikasi sohasida B.N. Persson, C. Ganser, H. Kipphan, Sh. Magdassi, K.S. Arxipov, I.O. Govyazin, O.S. Martyanova, M.V. Domasev, S.P. Gnatyuk, I.A. Sisuyev, Y.A. Kobenko, M.F. Fedorsuk, A.Y. Kaverina, D.V. Pshenichniy va boshqa olimlar salmoqli hissa qo‘shganlar. Bosma bo‘yoqlari tarkibi va xossalarining chop etish jarayoniga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha M.A. Zilbergleyt, I.V. Marchenko, L.A. Shevtsova, G.N. Kononov, V.V. Soxonchuk, Y.G. Rustamova, A.A. Gridnev, G.M. Muxametova, A.A. Gulin, M.S. Kagirina va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda muqobil xomashyolar asosida asosiy matbaa materiallarini ishlab chiqarish, bosma mahsulotlari sifatini oshirish, shuningdek, texnologik jarayon parametrlari va materiallar xossalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga oid tadqiqotlar X.A. Alimova, A.K. Bulanov, X.A. Babaxanova, I.A. Nabiyeva, U.J. Yeshbayeva, I.A. Bulanov, A.A. Djalilov, Z.K. Galimova, O.D. Haqnazarova, I.I. Ismailov, D.R. Safayeva, M.M. Abdunazarov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, purkashli chop etish va suv asosli bo‘yoqlardan foydalanish orqali kam adadli bosma mahsulotlar sifatini oshirish, suv asosli bo‘yoqning tarkibi va xossalarining bosma sifatiga ta’sirini aniqlash, shuningdek, sifatli bosma nusxalarini olish maqsadida purkashli chop etish jarayonida turli tarkibli bo‘yoqlarning chop etiladigan material bilan o‘zaro ta’sirlashuv xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar yetarli darajada to‘liq o‘rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari tematik rejasiga bog‘liq bo‘lib, VA-OT-A3-05 “O‘zbekiston Respublikasi sellyuloza-qog‘oz va matbaachilik sanoatlari uchun ikkilamchi tolali materiallardan qog‘oz olish texnologiyasini takomillashtirish” amaliy loyihasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi purkashli chop etish texnologiyasida bosma mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish uchun modifikatsiyalangan suv asosli bo‘yoqni olish usulini ishlab chiqish va fizik-kimyoviy hamda bosma-texnik xossalarini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

purkashli chop etishda suv asosli bo‘yoq va chop etiladigan materialning o‘zaro ta’sirlashish jarayoniga oid ilmiy tadqiqotlarning tahliliy sharhini amalga oshirish;

gazli xromatografiya hamda IQ-spektroskopiya usullari yordamida purkashli chop etish uchun efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqning tarkibi va xossalarini o‘rganish;

efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqning tarkibi va xossalarining purkashli chop etish sifatiga ta’sirini spektrodensitometrik va mikroskopik tadqiqot usullari asosida baholash;

SEM (skanerlovchi elektron mikroskopiya) va EDS-tahlil usullaridan foydalangan holda purkashli chop etishda efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqning chop etiladigan material bilan o‘zaro ta’sirlashuvining xususiyatlarini aniqlash;

matbaa korxonalarida muqobil xomashyo qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida turli tarkib va kompozitsiyadagi suv asosli bo‘yoqlar, shu bo‘yoqlardan foydalanib purkashli chop etishda olingan ko‘p bo‘yoqli nusxalar olingan.

Tadqiqotning predmeti suv asosli bo‘yoqning chop etiladigan material yuzasi bilan o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni hamda purkashli chop etish jarayonida suv asosli bo‘yoq xossalari bilan bo‘yoqni qabul qilish ko‘rsatkichi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikdan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida bosma nusxalarning sifat ko‘rsatkichlarini baholashning standart va zamonaviy usullari, jumladan, gaz xromatografiyasi, IQ-Furye spektroskopiyasi, viskozimetriya, ionometriya, konduktometriya, spektrodensitometriya va mikroskopik tahlil usullaridan, tajriba natijalarini qayta ishlashda esa matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

purkashli texnologiyada matbaa mahsulotlarini chop etish uchun efir-aldegid fraksiyasidan foydalanish asosida suv asosli bo‘yoq olish texnologiyasi takomillashtirilgan;

efir-aldegid fraksiyasidan modifikator sifatida foydalanish asosida qovushqoqlikni me’yorlashtirish va bo‘yoqning bosma materialda mustahkamlanish vaqtini qisqartirishni ta’minlovchi purkashli chop etish uchun suv asosli bo‘yoqning maqbul tarkibi aniqlangan;

suv asosli bo‘yoqning bosma-texnik xossalarining kompozitsiya tarkibi va komponentlar miqdoriga bog‘liqligi spektrodensitometriya usuli orqali aniqlangan hamda asoslangan;

purkashli texnologiyada bosma sifatni ta’minlash uchun suv asosli bo‘yoqning tarkibi va bo‘yoqni qabul qilish ko‘rsatkichi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyati SEM va EDS-tahlil hamda regression tenglamalar qurish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqlarni olishning ishlab chiqilgan usuli ichki bozorni mahalliy materiallar bilan ta’minlashga, shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning assortimenti va hajmini kengaytirishga xizmat qiladi;

efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqning aniqlangan ratsional tarkibi va xossalari bosma nusxada qovushqoqlikni pasayishini va nusxada bo‘yoqning mustahkamlanish vaqtini kamayishini ta’minlaydi;

olingan matematik model ma’lum tarkib va qovushqoqlikka ega suv asosli bo‘yoqdan ma’lum massali qog‘ozda foydalanishda texnologik jarayonni optimallashtirish, shuningdek, kam adadli mahsulotlarni chop etishda moddiy va energiya xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro muvofiqligi, tadqiqot natijalarining amaliyotda sinovdan o‘tkazilib, ijobiy natijalar berganligi, shuningdek, olingan ma’lumotlarning mavjud baholash mezonlari bo‘yicha taqqoslanishi va ularning adekvatligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati purkashli chop etish uchun efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqlarni olish usulining takomillashtirilganligi, bosma sifatini ta’minlash uchun ratsional tarkibning aniqlanganligi hamda suv asosli bo‘yoq va chop etiladigan material yuzasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuv jarayoni xususiyatlarining ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqlarni olishning takomillashtirilgan usuli ichki bozorni mahalliy materiallar bilan ta’minlashga, mahsulotlar assortimenti va ishlab chiqarish hajmini oshirishga xizmat qilishi, shuningdek, suv asosli bo‘yoqning aniqlangan ratsional tarkibi bosma nusxalarining sifatini ta’minlashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoqning chop etiladigan materialning yuzasi bilan o‘zaro ta’sirlashuvining xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida:

efir-aldegid fraksiyasi qo‘shilgan suv asosli bo‘yoq “Elektron texnika markazi” MChJ, “NAMANGAN POLIGRAF PRESS” MChJ, “YASHIN SANOAT SAVDO HARID” XK korxonalarida joriy etilgan (“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining 2026-yil 24-sentabrdagi 1/3-104-sonli ma’lumotnomasi). Efir-aldegid fraksiyasi kiritilgan suv asosli bo‘yoqni joriy etish ichki bozorni mahalliy materiallar bilan ta’minlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti va hajmini oshirish imkonini beradi. Matbaachilik korxonalarida modifikatsiyalangan suv asosli bo‘yoqni qo‘llash natijasida 1 kg bo‘yoq uchun import analoglariga nisbatan xarajatlarni 68% ga kamaytirishga erishiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan, 7 ta xalqaro anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 29 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, Scopus xalqaro bazasiga kiruvchi jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **"Purkashli chop etishda suv asosli bo'yoq va chop etiladigan materialning o'zaro ta'sirlashuvi jarayoni tadqiqotlari sharhi"** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar sharhi va adabiyot manbalari tahlili keltirilgan. Kam adadli ko'p bo'yoqli mahsulotlar uchun turli xildagi bo'yoqlardan foydalanish bo'yicha purkashli chop etish texnologiyasi sohasidagi olimlarning ish tajribalari o'rganilgan va umumlashtirilgan. Chop etiladigan materialning xossalari va purkashli printerning konstruksion o'ziga xosliklariga bog'liq holda bo'yoq turi to'g'ri tanlanganda va qo'llanilganda bosma mahsulotlarini ishlab chiqarishning yuqori sifati ta'minlanishi aniqlangan. Bosma mahsulotlarini ishlab chiqarish sifatini oshirish maqsadida suv asosli bo'yoq va chop etiladigan materialning o'zaro ta'sirlashuvi jarayonining o'ziga xosliklarini tadqiq qilish yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning **"Purkashli chop etish uchun suv asosli bo'yoqning tarkibi va xossalarini tadqiq qilish"** nomli ikkinchi bobi modifikatsiyalangan suv asosli bo'yoqni olish usulini ishlab chiqish, tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish, shuningdek, komponentlarni identifikatsiya qilish va iyerarxik shakl bo'yicha optimal kompozitsion tarkibni aniqlashga bag'ishlangan(1-rasm).



1-rasm. Suv asosli bo‘yoq tarkibi va xossalarining purkashli chop etish sifatiga ta’sirini iyerarxik shakli

Suv asosli bo‘yoqni tayyorlash 2-rasmda keltirilgan texnologik shakl bo‘yicha amalga oshirildi.



2-rasm. Suv asosli bo‘yoq olish texnologik shakli

Birinchi bosqichda oldindan tozalangan idishda distillangan suvni sirt-faol modda (natriy laurilsulfat) va erituvchilar (glitserin, etilenglikol, propilenglikol) bilan aralashtirish yo‘li bilan suvli asos tayyorlandi. Aralashtirish (30±5) ^{0}C harorat va havoning nisbiy namligi (50±5)% bo‘lganda bir turli (gomogen) eritma olingunga qadar amalga oshirildi. Magnitli aralashtirgichdan foydalanib doimiy tarzda mexanik aralashtirgan holda ohistalik bilan bo‘yovchi modda qo‘shildi va quyqalarning hosil

bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan holda zarralarning bir tekis taqsimlanishi ta’minlandi. Qovushqoqligini va reologik xossalarini barqarorlashtirish uchun dispersiyaga KMS qo‘shildi, to‘liq erigunga va bir xildagi qovushqoqlikka erishilgunga qadar yaxshilab aralashtirildi. Mikroorganizmlar o‘sishining oldini olish va saqlashda bo‘yoqlarning barqaror bo‘lishini ta’minlash uchun biotsid qo‘shildi. Fizik-mexanik va bosma-texnik xossalarini yaxshilash uchun efir-aldegid fraksiya (EAF) qo‘shildi. Muhitning pH qiymatini belgilangan diapazonda saqlash va kimyoviy barqarorlikni ta’minlash uchun pH stabilizatori qo‘shildi. Tayyor dispersiya yirik zarralarni ketkazish maqsadida g‘ovakliklarining o‘lchami 5-10 μm bo‘lgan filtrlar orqali filtrlandi.

Suv asosli bo‘yoqlarning optimal tarkibini tanlash maqsadida asosiy komponentlarning miqdoriy tarkibi farqlanadigan beshta tajribaviy kompozitsiya tayyorlandi (1-jadval).

1-jadval

Tarkib komponentlarining turli variantlardagi miqdori

Tarkib komponentlari	Turli variantlardagi miqdori					Me’yoriy/sifat hujjati
	1	2	3	4	5	
Distillangan suv, ml	Umumiy hajm 100 ml bo‘lguncha					ГОСТ 6709-72
Bo‘yovchi modda, g	2	2	2	2	2	Ishlab chiqaruvchining CoA hujjati bo‘yicha
Glitserin, ml	1	2	3	4	5	ГОСТ 6824-96
Etilenglikol, ml	2	2	2	2	2	ГОСТ 19710-2019
Propilenglikol, ml	5	5	5	5	5	ГОСТ 29034-91
Efir-aldegid fraksiyasi (EAF), ml	1	2	3	4	5	TSh 18-81:2012
Natriy laurilsulfat, ml (0,5% li)	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	ГОСТ 13803-91
Karboksimetilsellyuloza, ml (0,5%)	5	5	5	5	5	OCT 6-05-386-80
Biotsid	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	ГОСТ 1625-2016
pH stabilizatori	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	ГОСТ 3760-79


Suv asosli bo‘yoqning kimyoviy tarkibini aniqlash va identifikatsiya qilish uchun gazli xromatografiya usulidan foydalanildi. «Xromatek-Kristall 5000» xromatografida olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval


Xromatografik tahlil natijalari

Birikmaning nomlanishi	Komponentlarning nisbiy miqdori	
	Yangi tarkib	Sanoat namunasi
9-Hexadecanoic acid	15.34	50.58
Trans-13-Octadecenoic acid	6.78	13.94
Ethanol 2-(2-butoxethoxy)	-	45.78
9-Hexadecenoic acid	-	10.73
9-Octadecenoic acid (Z), 2-hydroxy-1 (hedroxymeth)	-	14.66
Z-(13,14-Epoxy)tetradic-11-en-1-ol acetate	4.410	-

Gazoxromatografik tahlil natijalari (2-jadval) shuni ko‘rsatdiki, ham sanoat namunasi sifatida olingan, ham modifikatsiyalangan suv asosli bo‘yoq tarkibida kislota mavjud organik birikmalarga va yuqori yog‘ kislotalarga ega. Ikkala namunada ham n-Hexadecanoic acid (palmitin kislota) va Trans-13-Octadecenoic acid asosiy komponentlar hisoblanadi, biroq, ularning miqdoriy nisbati sezilarli darajada farq qiladi. Sanoat namunasida 9-Hexadecanoic acid ning miqdori 50,58 (3-rasm, a) ni tashkil qilishi aniqlandi, bu ishlab chiqilgan bo‘yoq tarkibidagi uning miqdoridan (15,34) uch martadan ko‘proq ekanligini anglatadi (3-rasm, b).



a)



b)


a – sanoat namunasi (Xitoy); b – yangi tarkibli

3-rasm. 9-Hexadecanoic acid uchun suv asosli bo‘yoqning differensial xromatogrammasi

Trans-13-Octadecenoic acid uchun ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatiladi, uning konsentratsiyasi sanoat namunasi sifatida olingan bo‘yoqda 13,94 ga yetadi, yangi tarkibli namunada esa 6,78 ni tashkil qiladi (2-jadval). Ishlab chiqilgan bo‘yoq tarkibida sanoat kompozitsiyasida mavjud bo‘lmagan Z-(13,14-Epoxy)tetradec-11-en-1-ol acetate birikmasi 4,41% miqdorda identifikatsiya qilindi. Mazkur komponentning mavjudligi muqobil xomashyodan foydalanish yoki bo‘yoq olish texnologiyasining o‘ziga xosliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Modifikatsiyalangan bo‘yoqning tarkibida funksional guruhlarni aniqlash uchun molekulalar tomonidan IQ-nurlanishni yutishga asoslangan IQ-spektroskopiya usulidan foydalanildi.

Yangi tarkibli suv asosli bo‘yoqni IQ-spektroskopik tahlil qilish natijasida gidroksil guruhlarning (–OH) valent tebranishlariga mos keluvchi ~3400 sm^{-1} sohada yutilish yo‘lkalarining mavjudligi aniqlandi (4-rasm, a). Uning nisbatan past intensivligi gidrofil funksional guruhlarning kam miqdorda ekanligidan dalolat beradi. Taxminan 1650 sm^{-1} sohadagi asosiy pik bo‘yoqning tarkibida karbonil yoki amid guruhlarining mavjudligini ko‘rsatadi. 1000 sm^{-1} sohadagi sust namoyon bo‘lgan yo‘lka mineral aralashmalar miqdorining sezilarsiz ekanligidan dalolat beradi, bu esa ishlab chiqilgan kompozitsiyaning tozaligi va sifatini tasdiqlaydi.



4-rasm. Yangi tarkibli (a) va sanoat namunasi sifatida olingan (Xitoy) (b) suv asosli bo‘yoqlarning infraqizil spektrlari

Sanoat namunasi sifatida olingan (Xitoy) suv asosli bo‘yoqning IQ-spektrida taxminan 3400 sm^{-1} sohada gidroksil guruhlarga (–OH) tegishli bo‘lgan yo‘lka kuzatiladi, akril bog‘lovchilarning karbonil guruhlari (C=O) mavjudligini

ko‘rsatuvchi 1600-1700 sm^{-1} sohadagi piklar, taxminan 1000-1100 sm^{-1} sohada mineral to‘ldiruvchilar va funksional qo‘shimchalarning mavjudligidan dalolat beruvchi signallar kuzatiladi. Bu holat bo‘yoqning tarkibida polimer bog‘lovchi va mineral komponentlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

Olingan IQ-spektrlar kutubxona ma’lumotlari bilan taqqoslanganda aniqlangan 11 ta birikmaning 5 tasi tadqiq qilinayotgan ikkita bo‘yoqning tarkibida mos tushishi aniqlandi, bu holat ularning kimyoviy o‘xshashligidan dalolat beradi.

Ishda qovushqoqlik tadqiq qilingan, chunki u purkashli chop etishda tomchining hosil bo‘lish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi va ko‘p jihatdan suv asosli bo‘yoqning bosma-texnik xossalarini aniqlab beradi (3-jadval).

3-jadval

Turli variantdagi suv asosli bo‘yoqning reologik xossalari

Ranglar	Siljish kuchlanishi, mPa	Qovushqoqlik, mPa·s	Moment, mN·m
	1 (2) variant		
cyan	265,655 (278,399)	5,42 (5,68)	0,003 (0,003)
magenta	143,637 (154,613)	3,01 (3,24)	0,001 (0,002)
yellow	150,866 (164,299)	2,92 (3,18)	0,001 (0,002)
black	244,456 (259,164)	4,82 (5,11)	0,002 (0,003)
	3 (4) variant		
cyan	289,672 (299,475)	5,91 (6,11)	0,003 (0,003)
magenta	164,157 (173,701)	3,44 (3,64)	0,002 (0,002)
yellow	176,182 (195,299)	3,41 (3,78)	0,002 (0,002)
black	279,958 (294,666)	5,52 (5,81)	0,003 (0,003)
	5 (sanoat namunasi) variant		
cyan	309,278 (292,221)	6,31 (5,96)	0,003 (0,003)
magenta	184,676 (181,861)	3,87 (3,81)	0,002 (0,002)
yellow	220,615 (202,067)	4,27 (3,91)	0,002 (0,002)
black	304,810 (273,568)	6,01 (5,39)	0,003 (0,003)


3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, to‘rtinchi variant reologik ko‘rsatkichlarning umumiy majmuasi bo‘yicha sanoat namunasiga eng yaqin natijalarni namoyon etdi. Uchinchi va beshinchi variantlarda ham sanoat namunasiga yaqin qiymatlar qayd etildi, biroq uchinchi variantda Magenta va Yellow ranglarining qovushqoqligi nisbatan pastroq, beshinchi variantda esa Yellow va Black ranglarining qovushqoqligi yuqoriroq bo‘ldi.

Ishda suv asosli bo‘yoqning pH-ko‘rsatkichi va elektr o‘tkazuvchanligi tadqiq qilindi, chunki mazkur parametrlar uning fizik-mexanik barqarorligiga, chop etish tizimining elementlari bilan moslashuvchanlikka va purkashli chop etishning sifatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiq qilingan namunalarning pH qiymati 7,1-8,2 diapazonda ekanligi aniqlandi, elektrod potensiali esa -2,9 mV dan -70,3 mV gacha o‘zgardi. pH va elektrod potensiali (R^2=0,99) orasida yuqori darajadagi chiziqli bog‘liqlik aniqlandi: pHning ortishi bilan potensial Nernst tenglamasiga muvofiqlikda tizimli tarzda pasaydi. Olingan bog‘liqlik bo‘yoqlarning sifatini nazorat

qilish, chop etish boshchalarining tiqilib qolishini oldini olish va korroziya jarayonlarini kamaytirishda qo‘llanilishi mumkin. Elektr o‘tkazuvchanlikni tadqiq qilish shuni ko‘rsatdiki, uning qiymati 1601,0-2505,3 µS/cm diapazonda bo‘lib, u purkashli chop etish bo‘yoqlari uchun yo‘l qo‘ysa bo‘ladigan qiymatlarga mos keladi, lekin optimal diapazondan chetga chiqadi. Bu holat bo‘yoqning tarkibida tomchilarning shakllanish jarayoniga va chop etishning barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi ion komponentlarining yuqori miqdoridan dalolat beradi. Reologik tavsifnomalarni solishtirma tahlil qilish xossalari sanoat namunasiga eng yaqin bo‘lgan №4 tarkib eng istiqbolli hisoblanishini ko‘rsatdi.

Dissertasiyaning **“Suv asosli bo‘yoq tarkibi va xossalarining purkashli chop etish sifatiga ta’siri”** deb nomlangan uchinchi bobi yangi tarkibli suv asosli bo‘yoqni purkashli chop etishda qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq qilish, shuningdek, uning foydalanish xossalarini baholash hamda tarkibning tasvirlarni hosil qilishning grafik aniqligiga ta’sirini aniqlashga bag‘ishlangan.

Shriftli axborotni hosil qilish aniqligini baholash uchun ishlab chiqilgan test-obyekt (5-rasm) o‘lchmi 4 dan 18 punktgacha bo‘lgan pozitiv va negativ shriftlarga ega bo‘ldi.



5-rasm. Ishlab chiqilgan test-obyekt


Epson Eco Tank L3200 purkashli printerida sanoat namunasi sifatida olingan Epson 103 dye ink (Xitoy) bo‘yog‘i va yangi tarkibli bo‘yoqdan foydalangan holda ishlab chiqilgan test-obyekt chop etildi. Tadqiqot obyektlari sifatida yuzasining strukturasi, qoplamining mavjudligi va turi bo‘yicha farqlanadigan yettita qog‘oz turi tanlandi (4-jadval).

4-jadval

Tadqiq qilinayotgan qog‘ozlarning tavsifnomalari

№	Qog‘ozning nomlanishi	Massasi, g/m^2
1	Ofset qog‘ozi (bo‘rlanmagan)	80
2	Two-side glossy Photo paper (2-tomonlama yaltiroq fotoqog‘oz)	130
3	Matte photo paper (xira fotoqog‘oz)	130
4	Double sided matte Photo Paper (ikki tomonlama xira fotoqog‘oz)	140
5	Epson Matte (xira fotoqog‘oz)	140
6	Two-side glossy photo paper (ikki tomonlama yaltiroq fotoqog‘oz)	160
7	Double side Matte inkjet paper (ikki tomonlama xira fotoqog‘oz)	230

Nusxalarning grafik aniqligini baholash uchun optik mikroskopiya usuli bilan (SVBONY 50-1000x) mikroshtrixli elementlar va 6 punkt o‘lchamli minimal shriftni hosil qilish sifati tahlil qilindi.




A – №2 (6) qog‘ozida; b – №3 (№4, №5, №7) qog‘ozida

6-rasm. Qog‘ozlarda chop etilgan nusxalarning mikrofotosuratlari

Suv asosli bo‘yoqlar kegli 6 punkt bo‘lgan shriftning hosil qilinishini ta’minlaydi, biroq, konturlarda kuzatilayotgan arrasimonlik chop etishning aniqligini oshirish uchun bo‘yoqlarning reologik xossalarini optimallashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Suv asosli bo‘yoq tarkibining rang uzatilishiga ta’sirini baholash uchun yettita qog‘oz turlarida asosiy ranglar rastrli elementlarining optik zichlik qiymatlari o‘lchandi. Optik zichlik qiymatlari ma’lumotlari bo‘yicha birinchi va ikkinchi variantli suv asosli bo‘yoqlar bilan chop etishda ikkita qog‘oz turida asosiy triada ranglarining gradatsion uzatilishini tavsiflovchi gradatsion bog‘liqlik egrilari qurildi (7-rasm).



7-rasm. Birinchi va ikkinchi tarkibli variantlardagi suv asosli bo‘yoqlar bilan chop etishda №1 va №2 qog‘ozlarda havorang bo‘yoq uchun gradatsion bog‘liqlik egrilari

Gradatsion egrilar (7-rasm) tahlili shuni ko‘rsatdiki, yaltiroq qoplamga ega bo‘lgan №2 qog‘oz, №1 qog‘oz bilan taqqoslaganda, tus o‘tishlarining sifatliroq uzatilishini ta’minlaydi. №2 tarkib sanoat namunasi sifatida olingan bo‘yoqqa eng yaqin natijalarni ko‘rsatdi.


Xira (№3, №4, №5, №7) va yaltiroq (№2, №6) qog‘ozlarda olingan nusxalarning optik zichliklari qiymatlarini solishtirma tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, rang uzatish sifati tashuvchining turi va suv asosli bo‘yoqning tarkibidan iborat birgalikdagi ta’sir bilan aniqlanadi, bunda bo‘yoqning retsepturaviy o‘ziga xosliklari yetakchi faktor hisoblanadi.

Suv asosli bo‘yoq tarkibining purkagichlar orqali bir tekis uzatishga ta’siri darajasini aniqlash uchun quyidagi formula bo‘yicha 100% va 80% elementlarning zonali optik zichliklari o‘lchangan holda chop etish kontrasti ko‘rsatkichi - Shirmer-Rentser koeffitsiyenti hisoblandi. Purkagichlarning kattalashritilishi chop etishda keng tarqalgan nuqson - rastrli tasvirlarning to‘q (soya) joylarida gradatsiyaning yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin:

$$K = \frac{D_p - D_r}{D_p}$$

bu yerda: K - kontrast koeffitsiyenti; D_r - rastrli maydonning integral optik zichligi; D_p - sidirg‘a bo‘yoq qatlamining optik zichligi.

Suv asosli bo‘yoqlarning turli tarkiblaridan foydalanishda №2 va №3 qog‘ozlarda tasvirlarning to‘q joylarini hosil qilish natijalarining tahlili 8-rasmda keltirilgan.




8-rasm. Suv asosli bo‘yoqning turli tarkiblari uchun asosiy triada CMYK ranglari uchun kontrast koeffitsiyentining o‘zgarishi diagrammasi: a - №2 qog‘ozda; b - №3 qog‘ozda

8-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqadiki, №5 tarkib optimal diapazon 0,20-0,25 ga eng yaqin bo‘lgan qiymatlarni ta’minlaydi, bu esa tasvirning to‘q joylarining sifatliroq hosil qilinishidan dalolat beradi.

Purkashli chop etishning sifati CIE L*a*b* rang fazosida rang qamrovi bo‘yicha baholandi. Buning uchun asosiy va aralash ranglarning koordinatalari aniqlandi va tegishli rangli oltiburchaklarning maydonlari taqqoslandi hamda tadqiq qilinayotgan namunalarda rang uzatilishining to‘liqligini baholash imkoniga ega bo‘lindi.

Rang qamrovlarini solishtirma tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, birinchi va ikkinchi tarkiblar rang koordinatalarining eng barqaror darajada taqsimlanishi bilan tavsiflanadi, ikkinchi tarkib rang fazosining yashil sohasining bir tekis hosil qilinishini ta’minlaydi. Uchinchi tarkib sariq-yashil sohada rang qamrovining qo‘shimcha torayishi bilan ajralib turadi, bu esa rang uzatishda muvozanatlashganlikning pasayishidan dalolat beradi. To‘rtinchi tarkib uchun (9-rasm, a) qizil-qirmizi sohada rang qamrovining sezilarli chegaralanishi tavsifli, bu iliq ottenkalar to‘yinganligining pasayishini ko‘rsatadi. Beshinchi tarkib (9-rasm, b) eng keng va muvozanatlashgan rang qamrovini ta’minlaydi, bu esa uning tadqiq qilinayotgan variantlar orasida eng yaxshi kolorimetrik tavsifnomalarga egaligidan dalolat beradi.



9-rasm. Yettita qog‘oz turida suv asosli bo‘yoqlarda chop etilgan nusxalarning rang qamrovi: a - to‘rtinchi tarkib; b - beshinchi tarkib

Oltiburchakli rang qamrovlarini (9-rasm) tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tadqiq qilinayotgan suv asosli bo‘yoq tarkiblari turli xildagi qog‘ozlarda rang uzatish tavsifining bir-biriga o‘xshash bo‘lishini ta’minlaydi, biroq rang qamrovining to‘liqligi va hosil qilinishi tekisligi bo‘yich farqlanadi.


Dissertatsiyaning **“Purkashli chop etishda suv asosli bo‘yoq va chop etiladigan materialning o‘zaro ta’sirlashuvi jarayonining o‘ziga xosliklari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobi SEM vA EDS-tahlillardan foydalangan holda qog‘ozning yuza qatlamida suv asosli bo‘yoq elementlarining taqsimlanishini o‘rganishga, chop etish sifatini ta’minlash uchun matematik modellashtirish asosida suv asosli bo‘yoqning optimal tarkibini asoslashga bag‘ishlangan.

Skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) va energodispersion rentgen spektroskopiya (EDS) usullari bilan JEOL JSM-IT200 skanerlovchi elektron mikroskopida mikrostrukturaning yuqori imkonli qobiliyatdagi SEM-tasvirlari olindi. Suv asosli bo‘yoqning chop etiladigan materialda taqsimlanishi va chuqurligiga shimilishi ko‘ndalang kesimlarning SEM-tasvirlari bo‘yicha bo‘yoq - taglik tizimining chegarasi bo‘yicha miqdoriy baholandi.

Tahlil obyekti sifatida modifikatsiyalangan va sanoat namunasi sifatida olingan bo‘yoqda chop etilgan №3 qog‘ozdagi nusxalar olindi.

SEM-tasvirdagi to‘q soha shakllantirilgan bo‘yoq qatlamiga mos keladi. Tadqiqotlarga ko‘ra sanoat namunasi sifatida olingan (Xitoy) suv asosli bo‘yoqda chop etishda bo‘yoq qatlamining o‘rtacha qalinligi 2,3 μm ni, muqobil xomashyo asosida ishlab chiqilgan bo‘yoqdan foydalanishda esa 1,9 μm ni tashkil qiladi. Olingan natijalar yupqaroq va bir tekis bo‘yoq qatlamining shakllanishidan dalolat beradi, bu holat talab qilinadigan bosma-texnik xossalar saqlangan holda chop etiladigan materialning yuzasida bo‘yoqning oqishi va mustahkamlanishi sharoitlarining yaxshilanishi bilan tushuntirilishi mumkin.


Tadqiq qilinayotgan bo‘yoqlar tarkibida elementlarning taqsimlanishini batafsilroq o‘rganish uchun skanerlovchi elektron mikroskopiya bilan uyg‘unlashtirilgan holda energodispersion rentgen spektroskopiya (EDS) usuli bilan elementli xaritalash amalga oshirildi (10-11-rasmlar).



10-rasm. Modifikatsiyalangan suv asosli bo‘yoqni elementli xaritalash mikrosuratlari

Elementli xaritalash natijalari shuni ko‘rsatdiki, modifikatsiyalangan suv asosli bo‘yoqda asosiy elementlar - uglerod, kislorod va kremniyning taqsimlanishi tadqiq qilinayotgan butun yuza bo‘yicha yuqori darajadagi bir turlilik bilan tavsiflanadi. Mahalliy konsentratsiya bo‘yicha yaqqol namoyon bo‘lgan sohalarning mavjud emasligi komponentlarning yaxshi aralashganligidan va bo‘yoq kompozitsiyasining bir tekis strukturasi shakllanganligidan dalolat beradi. Ayniqsa kremniyning bir tekis taqsimlanishi efir-aldegid fraksiyasi kiritilganidan so‘ng uning bo‘yoqning strukturasiga barqaror darajada qo‘shilishini tasdiqlaydi.

Sanoat namunasi sifatida olingan bo‘yoq namunasi ham uglerod, kislorod va kremniyning mavjudligi kuzatiladi, biroq, alohida elementlari taqsimlanishining bir turliligi pastroq. Bundan tashqari, taqsimlanish xaritalarida oltingugurt va kalsiy mahalliy konsentratsiyalanishi sohalari aniqlandi, bu miqdoriy EDS-tahlil natijalari bilan muvofiqlashadi va sanoat namunasi sifatida olingan bo‘yoqning tarkibida qo‘shimcha mineral qo‘shimchalarning mavjudligini ko‘rsatadi.



11-rasm. Sanoat namunasi sifatida olingan (Xitoy) suv asosli bo‘yoqni elementli xaritalash mikrosuratlari

Chiziqli va atom massasining foizli nisbatida bo‘yoqning elementli tarkibi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Bo‘yoqlar tarkibining elementli tahlili, massa %

Elementlar	Modifikatsiyalangan bo‘yoq		Sanoat namunasi (Xitoy)	
	Chiziqli massa, %	Atom massasi, %	Chiziqli massa, %	Atom massasi, %
	makroelementlar			
C-K	27,68±2,51	38,50±3,50	45,47±2,59	58,82±3,35
O-K	41,11±3,12	42,93±3,26	27,24±2,67	26,46±2,59
Si-K	31,21±3,63	18,57±2,16	24,23±2,97	13,40±1,64
	mikroelementlar			
S-K			1,41±0.94	0,68±0,46
Ca-K			1,65±1,40	0,64±0,54
Summa	100,0			

